

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ARIPOV ALISHER ABDUMALIKOVICH**

**YOSHLAR MA'NAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA  
BAG'RIKENGLIK FENOMENINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY-  
FALSAFIY XUSUSIYATLARI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on philosophical sciences**

**Aripov Alisher Abdumalikovich**

Yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlashda bag‘rikenglik fenomenini  
yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari..... 3

**Арипов Алишер Абдумаликович**

Социально-философские характеристики повышения феномена  
толерантности в обеспечении духовной безопасности молодежи ..... 21

**Aripov Alisher Abdumalikovich**

Socio-philosophical characteristics of increasing the phenomenon of tolerance in  
ensuring the spiritual security of youth ..... 41

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 46

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ARIPOV ALISHER ABDUMALIKOVICH**

**YOSHLAR MA’NAVIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA  
BAG’RIKENGLIK FENOMENINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY-  
FALSAFIY XUSUSIYATLARI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2022.1.PhD/Fal681 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Saitkasimov Akbar Isaxonovich**  
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yaxshilikov Juraboy Yaxshilikovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Majitov Maxmud Abdimumin o‘g‘li**  
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “\_\_\_” soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40; e-mail: [rector@samdu.uz](mailto:rector@samdu.uz). Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_ -raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kunida tarqatildi.  
(2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.Sh.Negmatova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**X.A.Djurakulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**A.R.Samadov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

## **KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda zamonaviy globallashuv hodisalari yoshlarning ma’naviy qiyofasida destruktiv o‘zgarishlarni namoyon etishda muhim omil bo‘lib, ularning qalbida insonparvarlik, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik tuyg‘ularini ro‘yobga chiqishiga to‘sinq bo‘lmoqda. Globallashuv orqali vujudga kelayotgan “ommaviy madaniyat” tahdidi, axborot xurujlari, axloqiy degradatsiya jarayonlarini oldini olishda bevosita jamiyatda yoshlar ma’naviy xavfsizligini tizimli ravishda shakllantirish va bu borada mamlakatning potensial imkoniyatlarini ishga solish lozimligini taqozo etmoqda. Bu esa o‘z navbatida, yoshlar ongiga bunyodkor g‘oyalarni singdirishga bo‘lgan jamiyat ehtiyojini qondirish jarayonida, ularning bag‘rikenglik tamoyillariga tayangan ma’naviy madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Jahon ilm-fanida yoshlar ma’naviy xavfsizligi va ijtimoiy xavfsizlik, axloqiy mas’uliyatni anglash, bag‘rikenglik fenomenini o‘rganish va uni umuminsoniyat ma’naviy barqaror taraqqiyotidagi roli, bag‘rikenglikning ko‘rinishlari bilan bog‘liq ilmiy-nazariy, amaliy-fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Bag‘rikenglik fenomeni bugungi kunda mavjud konfliktlar, ma’naviy asosdagi tahdidlar, urushlar va xalqaro ziddiyatlarni oldini olish, insonning turli ko‘rinishdagi kamsitishlariga barham berish, ijtimoiy turmushda osoyishta yashashiga rag‘bat beradigan qadriyat tariqasida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli zamonaviy jamiyatda yoshlar orasida insonparvarlik, birdamlik, o‘zaro yordam, do‘stlik va hamkorlik kabi bag‘rikenglikka asoslangan umumbashariy tuyg‘ularni singdirish omillari, usul va vositalarini ilmiy tadqiq qilish muhim ijtimoiy zaruriyat sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ma’naviy yuksalish borasida ulkan shart-sharoitlar yaratilgan. Yoshlarda yangi jamiyatga xos innovatsion tafakkur vujudga kelmoqda. Hozirgi zamonaviy sharoitda Yangi O‘zbekistonda ma’naviy va ijtimoiy bag‘rikenglik tamoyillari ro‘yobga chiqib, jamiyatda barqarorlik asoslarini ta’minalash tizimida ahamiyati oshmoqda. “Millati, tili va dinidan qat’iy nazar, O‘zbekistonni o‘zining Vatani deb biladigan, uning ravnaqi uchun hissa qo‘sib kelayotgan har bir fuqaro bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e’tibori va ardog‘ida bo‘ladi. Millatlararo do‘stlik, diniy konfessiyalar o‘rtasidagi hamjihatlik, ijtimoiy bag‘rikenglik muhitini yana-da mustahkamlash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz”<sup>1</sup>. Shu mazmunda yoshlar hayotida ma’naviy asosdagi bag‘rikenglik fenomeni jamiyat barqarorligini ta’minalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon bilan bog‘liq ilmiy muammolarni tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son “O‘zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 13-iyuldaggi PF-6260-son “Yoshlarni har

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 2022-yil 21-dekabr. <https://xs.uz>.

tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmonlari, 2021-yil 26-martdagি PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ma'lumki, ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash azaldan dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etgan masalalardan bo'lib, bag'rikenglik fenomeni va ijtimoiy-ma'naviy hayot barqarorligi muammolari dastlab yunon faylasuflari Platon<sup>1</sup>, Aristotel va qadimgi Rim mutafakkiri Sitseron<sup>2</sup>, Xitoy mutafakkiri Konfutsiy asarlarida aks etgan edi.

Kishilararo ijtimoiy munosabatlar uzviyligi, ijtimoiy adolat, insonparvarlik va inson bag'rikengligi fenomenini ro'yobga chiqarish borasidagi fikrlar o'rta asrlardagi Markaziy Osiyo mutafakkirlari Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy<sup>3</sup>, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobi<sup>4</sup>, Abu Rayhon Beruniy, Nizomulmulk, Yusuf Xos Hojib, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning qarashlarida aks etgan edi.

Keyinchalik ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari, bag'rikenglik fenomeni va uning umuminsoniyat ma'naviy barqaror taraqqiyotidagi roli dunyo olimlari tomonidan yana ham keng o'rganildi. Jumladan, diniy bag'rikenglik, yoshlar ma'naviy xavfsizligi tahlili bo'yicha xorij olimlari A.Adler, Dj.Lokk<sup>5</sup>, farovonlik barqaror rivojlanishi, ijtimoiy xavfsizlik tendensiyalarni tahlil etishda G.Marsel, J.Mariten, J.Sartr, K.Yaspers, bag'rikenglik ijtimoiy-falsafiy mezonlari K.Yung, Volter<sup>6</sup>, Z.Freyd va boshqalar o'z asarlarida ilmiy asoslashga harakat qilganlar.

MDHdagi olimlar, muammoning ayrim qirralarini ya'ni inson taraqqiyoti, bag'rikenglik va ma'naviy xavfsizligi muammosi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar olib borgan A.Asmolov<sup>7</sup>, D.Kolesov, V.Biblerlarni<sup>8</sup>, ma'naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha E.Shlyagina, I.Shkuratovalarni, insonlarda

<sup>1</sup> Платон. Диалоги. (Серия «Философское наследие». Т. 98). — М.: Мысль, 1986.

<sup>2</sup> Цицерон. О пределах блага и зла. Парадоксы стоиков. / Пер. Н. А. Фёдорова, комм. Б. М. Никольского, вступ. ст. Н. П. Гринцера. (Серия «Памятники мировой культуры»). — М.: РГГУ. 2000. — 480 стр.

<sup>3</sup> Ahmad Yassaviy. Devoni Hikmat. Toshkent, Navro'z, 2018 y.

<sup>4</sup> Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. —Toshkent, O'zbekiston, 1983 y, 186-bet.

<sup>5</sup> Локк Джон. Письма о веротерпимости (англ.) рус. (A Letter Concerning Toleration, 1689 y).

<sup>6</sup> Вольтер. Философские сочинения / отв. Кузнецов В.Н., перевод Кочеткова А. — М.: Наука, 1988 г.

<sup>7</sup> Асмолов А. Классификация неосознаваемых явлений и категория деятельности // Вопросы психологии. — 1980 г. — № 3.

<sup>8</sup> Библер В. Культура. Диалог культур (опыт определения). — Вопросы философии, 1989 г, № 6.

bag‘rikenglik mas‘uliyatini shakllantirishning umumnazariy, xususan, yoshlarda fuqarolik mas‘uliyatini shakllantirish masalalari bo‘yicha L.Sinelnikova, N.Lebedova, N.Skvorsova, S.Bondireva, T.Fedorova, Ye.Kasyanova, Ye.Blinova, V.Vasilkova, V.Kozlovskiy, V.Shalin va boshqalarni kiritish mumkin.

O‘zbekistonlik olimlardan inson bag‘rikengligi muammolari va uning ijtimoiy, falsafiy va ma’naviy talqinini yoritishda A.Sharipov, E.Karimova, M.Xajiyeva<sup>1</sup>, Z.Qodirova<sup>2</sup> kabi olimlarning izlanishlarini alohida ta’kidlash lozim. Shu o‘rinda jamiyat ma’naviy taraqqiyoti va ma’naviy barqarorlikka erishish borasidagi tadqiqotlar A.Erkayev, A.Muminov, A.Saitkasimov, A.Xolbekov, B.To‘rayev, I.Ergashev, J.Yaxshilikov<sup>3</sup>, N.Jo‘rayev, M.Bekmurodov, M.Jakbarov, M.Qirg‘izboyev, M.Quronov, M.Quronboyev, O.Maxammatov<sup>4</sup>, O.G‘aybullayev<sup>5</sup>, Q.Nazarov, R.Jumayev, S.Jo‘rayev, S.Karimov, S.Otamurodov, S.Shermuhammedov, T.Jo‘rayev, V.Qo‘chqorov, Sh.Negmatova va boshqa faylasuf hamda siyosatshunos olimlarimizning ilmiy tadqiqot ishlarini ta’kidlab o‘tish joizdir. Ammo yuqoridagi tadqiqotlardan dissertatsiya mavzusi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlashda bag‘rikenglik fenomenini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlariga e’tibor qaratilmagan. Bu esa tadqiqot ishining yanada dolzarbligini belgilaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiytadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Ijtimoiy muammolarni hal etishda ijtimoiy sheriklikni kuchaytirishning innovatsion yo‘llarini joriy etish” nomli 57-11/78 raqamli amaliy grant loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ijtimoiy hayotda yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlashda bag‘rikenglik fenomeni bilan bog‘liq jarayonlarning konstruktiv xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

jamiatda yoshlarning ma’naviy xavfsizligi, ularning bag‘rikenglik tuyg‘usi bilan bog‘liq o‘zaro munosabatlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganish;

yoshlarning ma’naviy jihatdan xavfsizligini ta’minlash asnosida bag‘rikenglik fenomenini yuzaga chiqarish bilan bog‘liq ijtimoiy hayot qonuniyatlarini aniqlash;

yoshlar hayoti ma’naviy xavfsizligi va barqarorligini ro‘yobga chiqarishda milliy va diniy asoslardagi bag‘rikengligini ilmiy tahlil qilish;

yoshlar bag‘rikengligi fenomenini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishda ma’naviy-ma’rifiy texnologiyalar va ijtimoiy institutlarning rolini tadqiq etish;

yoshlar ma’naviy xavfsizligini amaliy jihatdan ta’minlashda bag‘rikenglik fenomenini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan takliflarni ishlab chiqish.

<sup>1</sup> Xajiyeva M. O‘zbekistonda bag‘rikenglik jarayoni.-T.: - “Abu-matbuot-konsalt”. 2008 y.

<sup>2</sup> Qodirova Z. va boshqalar. Yoslar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. - T.: Falsafa va huquq instituti. 2006 y.

<sup>3</sup> Yaxshilikov J., Muhammadiyev N. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. –Toshkent, Cho‘lpon, 2018 y.

<sup>4</sup> Maxammatov O. Globallashuv jarayonlarida O‘zbekiston yoslarining ma’naviy-mafkuraviy xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari. F.f.b.f.d (PhD) diss. avtoreferati. - SamDCHTI nashr-, 2022 y.

<sup>5</sup> G‘aybullayev O. “Shaxs ma’naviy kamoloti va estetik madaniyat” // Monografiya. - Toshkent, “Chashma print”, 2008 y.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida yoshlar ma’naviy xavfsizligi va bag‘rikenglik fenomeni bilang bog‘liq jarayonlar tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** ijtimoiy hayotda yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlashda bag‘rikenglik fenomenining konstruktiv ahamiyatini falsafiy aspektda asoslash bilan belgilanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy bilishning tizimlilik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, empirik-sotsiologik, taqqoslash, kuzatish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yoshlar bag‘rikengligi fenomenining jamiyatda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashdagi sotsial zaruriyati, ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashdagi integrativ, generativ va reguliyativ ta’siri ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor omili ekanligi asoslab berilgan;

yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlashda bag‘rikenglik fenomenining ijtimoiy hayot bilan bog‘liq qonuniyatları (o‘zaro aloqadorlik, vorisiylik, takrorlanish, notekislik), jamiyat ma’naviy taraqqiyoti bilan aloqador tamoyillari (yuksak madaniyat, milliy yuksalish, ijtimoiy strategiya) va fanlararo xususiyatlari (psixologik, politologik, sotsiologik) ilmiy dalillangan;

globallashuv sharoitida yoshlarda bag‘rikenglik tuyg‘usini shakllantirishiga ta’sir etuvchi axloqiy deviatsiya, degradatsiya, begonalashuv kabi destruktiv omillar dinamikasi mikro (hududiy) va makro (jamiyat) darajalarda transformatsiyalanishi falsafiy asoslangan;

ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda yoshlar ongiga halollik,adolat, sabr, qanoat, diyonat, xayrixohlik, riyozat, vijdon, haqiqat, muhabbat va sadoqat singari axloqiy tamoyillarni intensiv ravishda shakllantirishning ijtimoiy mexanizmlari ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalarini** quyidagilardan iborat:

yoshlar hayotiy pozitsiyalarida ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash, ularning bag‘rikenglik bilan bog‘liq tuyg‘ularini yuksaltirishning axloqiy, qadriyatiy va ijtimoiy jihatlarining ilmiy ko‘lamdagil tahlili berilgan va amaliy jihatdan takliflar keltirilgan;

jamiyat ma’naviyatini keng asoslarda yuksaltirishda yoshlarning ma’naviy xavfsizligini ro‘yobi bilan bog‘liq masalalarni hal etish va jarayonlar bilan bog‘liq yondashuvlar ishlab chiqilgan;

jamiyatda ma’naviy yuksalish jarayoni va modernizatsiya jarayonlarida yoshlarda bag‘rikenglik tuyg‘usini amaliy ko‘rinishlarini sotsiologik so‘rovlar asosidagi ko‘rsatkichlari havola etilgan;

jamiyatni milliy, ma’naviy va ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash, yoshlar bag‘rikenglik fenomenini yuksaltirish yuzasidan innovatsion taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchhliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchhlilik darajasi mamlakat va xalqaro ko‘lamda o‘tkazilgan ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallar nashrlarida chop etilgan maqolalar, tezislar va ularda berilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliy hayotda joriy etilgani, olingan natijalarining tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlab berilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya xulosalaridan jamiyat ma’naviy xavfsizligini ta’minlash va yoshlar bag‘rikengligini yuksaltirishni ijtimoiy falsafiy jihatdan ilmiy tahlil qilinganligi va ilgari surilgan konseptual qarashlardan falsafa, ma’naviyat asoslari, milliy g‘oya, fuqarolik jamiyatni asoslari, siyosatshunoslik, sotsiologiya, pedagogika fanlari bo‘yicha metodologik yondashuvlarni takomillashtirish bilan bog‘liq muammolarning o‘rganilishida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, dissertatsiya ishida qo‘lga kiritilgan amaliy natijalardan idora va vazirliklar, fuqarolik jamiyatni tuzilmalari, jamoat komissiyalari, ma’naviy va ma’rifiy faoliyat tashkilotlari, oila va o‘zini o‘zi-boshqarish institutlari va boshqa jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini natijadorligini oshirish hamda oliy ta’lim tizimida mavzuga aloqador darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar va dasturlar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlashda bag‘rikenglik fenomenini yuksaltirish ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini tadqiq etish asosida:

yoshlar bag‘rikengligi fenomenining jamiyatda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashdagi sotsial zaruriyati, ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashdagi integrativ, generativ va reguliyativ ta’siri ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor omili ekanligiga oid xulosalardan va taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2020-2024 yillarga mo‘ljallangan Saylovoldi dasturining 4.4. Mahalla tizimini yanada takomillashtirish, uning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini mustahkamlash sohasida: “Mahallaning fuqarolar, ayniqsa yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda, shuningdek, ijtimoiy sohadagi ishlarning samaradorligini oshirish” kabi vazifalarini amalga oshirishda hamda partiya tashabbusi bilan respublika bolalar va o‘smirlar nashrlari “Tong yulduzi”, “Klass”, “Bolalar sporti” gazetalari, “G‘uncha” va Gulxan” jurnallari hamkorligida mamlakatimizdagi barcha umumiy o‘rtalim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “Yozgi ta’til - “Milliy tiklanish” bilan!” loyihasi doirasidagi milliy insholar tanlovi Nizomini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2022-yil 15-dekabrdagi 02/02-260-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning ma’naviy-ma’rifiy, siyosiy-huquqiy bilimlarini boyitish, o‘z Vatani, oilasi, do‘s-t-u birodarlariga bo‘lgan muhabbat, bag‘rikenglik, milliy qadriyat va an‘analarga hurmat tuyg‘usini oshirish, jamiyatdagi o‘zgarishlarga nisbatan mustaqil fikr va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning yozma nutqini rivojlantirish hamda yoshlarning yozgi ta’til kunlarini mazmunli o‘tkazishlariga muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlashda bag‘rikenglik fenomenining ijtimoiy hayot bilan bog‘liq qonuniyatlarini (o‘zaro aloqadorlik, vorisiylik, takrorlanish, notekislik), jamiyat ma’naviy taraqqiyoti bilan aloqador tamoyillari (yuksak madaniyat, milliy yuksalish, ijtimoiy strategiya) va fanlararo xususiyatlari (psixologik, politologik, sotsiologik) ilmiy dalillangan xulosa va taklif-tavsiyalardan Jizzax viloyati “Istiqbol” mintaqaviy tadqiqot markazining 57-11/78

raqamli “Joylarda ijtimoiy muammolarni hal etishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish” nomli grant loyihasining 11-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Jizzax viloyati “Istiqbol” mintaqaviy tadqiqot markazining 2022-yil 15-noyabrdagi 17-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlashda bag‘rikenglik tuyg‘usini yuksaltirish va bu borada mavjud muammolarni hal etish hamda innovatsion dasturlarni ishlab chiqishda tegishli yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqish masalalarida muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

globallashuv sharoitida yoshlarda bag‘rikenglik tuyg‘usini shakllantirishiga ta’sir etuvchi axloqiy deviatsiya, degradatsiya, begonalashuv kabi destruktiv omillar dinamikasi mikro (hududiy) va makro (jamiat) darajalarda transformatsiyalanishiga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining IX yo‘nalishida belgilangan “Geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish” 40-band “Mamlakatimizdagи keng qamrovli islohotlar mazmunini aholining turli qatlamlariga tushuntirish va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, diniy aqidaparastlik va ekstremizmning buzg‘unchi g‘oyalaridan ogoh etishga qaratilgan “Jaholatga qarshi ma’rifat”, “Islom aqidaparastlikni qoralaydi”, “Yoshlar ekstremizmga qarshi”, “Ma’naviyat odam va olam xaloskori”, “Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo‘llari”, “Islom terrorizmga qarshi” mavzularida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil 27-yanvardagi 02-22/67-son ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlash orqali milliy hamda diniy bag‘rikenglik fenomenini yuksaltirishga xizmat qilgan;

ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda yoshlar ongiga halollik,adolat, sabr, qanoat, diyonat, xayrixohlik, riyozat, vijdon, haqiqat, muhabbat va sadoqat singari axloqiy tamoyillarni intensiv ravishda shakllantirishning ijtimoiy mexanizmlariga oid ilmiy-nazariy taklif-tavsiyalardan Jizzax viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil efirga uzatilgan “Inson qadri” va “Yoshlar yetakchisining kundaligi” kabi teledasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Jizzax viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 31-dekabrdagi 10-12/1183-son ma’lumotnomasi). Natijada, OAVlarining an’anaviy roli va ularning jamiat ko‘zgusi sifatidagi asosiy vazifasi, xususan, yoshlarni ma’naviy xavfsizligini ta’minlash va ularda insonparvarlik va bag‘rikenglik tuyg‘ularini kamol toptirishda muhim omil sifatidagi faolligi va yoshlarni ma’naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 124 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbliги asoslab berilgan, tadqiqotga oid maqsad va vazifalar, shuningdek, uning ob'yekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'naliшlariga mos kelishi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natjalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyati, natjalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Yoshlar ma'naviy xavfsizligi va bag'rikenglik fenomeni munosabatini o'rganishning nazariy-metodologik jihatlari**" deb nomlanib, unda "yoshlar", "ma'naviy xavfsizlik" va "bag'rikenglik" tushunchalarining o'ziga xos ta'rifi, ma'no-mazmuni va o'zaro munosabati, yoshlar ma'naviy xavfsizligi va bag'rikenglik fenomenini shakllantirish va yuksaltirish borasida tarixiy talqin, ijtimoiy, madaniy va siyosiy shart-sharoitlari o'rganilgan.

Shuningdek, jamiyatda yoshlar ma'naviy bag'rikengligini shakllanishi va genezisi, evolyutsiyasi, ijtimoiy-falsafiy xususiyati va insonparvarlik xarakteri, bag'rikenglik fenomenining inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati, ma'naviy borliqning bag'rikenglik fenomeni bilan o'zaro aloqadorligi ilmiy tahlili ko'rsatilgan. Ma'naviy xavfsizlik va bag'rikenglik jarayonlari uyg'unligining ijtimoiy-falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning takomili aynan yoshlar ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini shakllantirish orqali sodir bo'ldi, bu jarayon jamiyat milliy yuksalishi bilan o'zaro aloqadorlik asosidagi qonuniyatları orqali yuz beradi.

Bag'rikenglik umuminsoniy qadriyat bo'lib, insoniyat ma'naviy taraqqiyotida muhim tamoyil hisoblanadi. Uning ijtimoiy hayotda amal qilishi butun insoniyatning osoyishta, tinch va barqaror yashashiga xizmat qiladi. Shuningdek, bag'rikenglik tamoyilini yuksaltirish masalasi butun insoniyat va xalqaro tashkilotlar diqqat markazida turibdi. Jumladan, dunyo hamjamiyat uchun YUNESKO Bosh Konferensiyasi tomonidan 1995-yil 16-noyabrda qabul qilingan "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi" alohida ahamiyat kasb etadi. Unda shunday deyilgan: «Bag'rikenglik turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik tinchlikka erishishni muqarrar qiluvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. Parij, 1995 yil 16 noyabr. <https://nrm.uz/contentf?doc=122659>

“Bag‘rikenglik” tushunchasini birinchi marta fanga tatbiq etgan va amaliyotga kiritgan fransuz mutafakkiri Desyut de Trasi hisoblanadi. Mazkur tushuncha XVIII asrda fanga kiritilgan. Birinchi marta mazkur tushuncha “toqat qilish”, “toqatlilik” ko‘rinishida ishlatilgan. Bag‘rikenglik fenomeni jahon xalqlari bir-biri bilan tinch-totuv yashash va umumiy murosa prinsiplarini ifodalab, bir makon va zamonda turli qadriyatlarning birga yashash qobiliyatlarini ro‘yobga chiqishi hisoblanadi.

Shuningdek, bag‘rikenglik umumbashariy xususiyatga egaligi birgalikda barcha davlatlarning ijtimoiy va ma’naviy barqaror holda rivojlanishining muhim mezonlaridan birini tashkil etadi. Uning dolzarbligi yana quyidagilar bilan bog‘liqdir:

Birinchidan, bag‘rikenglik umumbashariy xususiyatiga ko‘ra inson huquqlari, sha’ni va qadr-qimmatini ro‘yobga chiqishi bilan ob’yektiv ravishda bog‘liqdir. Bag‘rikenglikni ijtimoiy hayotda to‘liq ro‘yobga chiqishi uchun insonni ulug‘lashga qaratilgan jarayonlar kuchayishi lozim.

Ikkinchidan, jamiyatda inson va ijtimoiy guruhlarning erkin holda mavjud bo‘lishi uchun bag‘rikenglik tuyg‘usi muhim bo‘lib, uning ijtimoiy falsafiy tomonlarini tadqiq etish, nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqishni talab etiladi.

Uchinchidan, bag‘rikenglik fenomenini shakllantirish va rivojlantirish xalqlar o‘rtasida do‘stlik, birodarlik, yaxshi qo‘shnichilik, hamjihatlik va o‘zaro ishonch ruhini mustahkamlash, do‘stona munosabatlarni qaror toptirishning muhim omilidir.

To‘rtinchidan, hozirgi kunda bag‘rikenglik fenomeni jamiyatimizda ijtimoiy qadriyat sifatida ro‘yobga chiqarish, uning hayotiy amaliyotini har taraflama takomillashtirish, muhim ma’naviy hodisa sifatida yoshlar dunyoqarashida o‘zining to‘liq ifodasini toptirish dolzarb ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda globallashgan dunyoda turli-tuman salbiy ko‘rinishdagi illatlar, ma’naviyatga tahdidlar, qarama-qarshiliklar va konfliktli vaziyatlarning juda ko‘pligi, shuningdek, ularning salmog‘i kundan kunga ko‘payib borayotganligi inson, ayniqsa yoshlarning bag‘rikenglik tuyg‘ulariga birmuncha soya solmoqda. Har qanday insonning o‘z e’tiqodi, qarashlari va hayotiy a’mollari mavjud ekan, u jamiyatda shu qadriyatlар asosida yashashga harakat qiladi va shu an’analarga sodiq qolishga intiladi. Ma’rifiy jamiyat mazkur qadriyatlarni hurmat qilgan holda ushbu jarayonlar rivojida bag‘rikenglik namunalarini ko‘rsatishlari lozim. Bag‘rikenglik fenomeni jamiyatda mavjud konfliktli vaziyatlarni bartaraf etishda, tomonlarning kelishuvga kelishi va sulh va tinchlik shartnomalarning tuzilishiga zamin yaratadigan voqelik hisoblanadi.

Ijtimoiy-falsafiy ma’noda bag‘rikenglik – jamiyatda turli-tuman qarashlar, g‘oyalar va munosabatlar, turmush an’analari, urf-odatlar, madaniy a’mollarni tan olish, insonlar, insonlar jamoalari, millatlar, dinlar, ijtimoiy guruhlar va siyosiy ittifoqlar o‘rtasidagi madaniy, diniy, irqiy qadriyatlар va tafovutlarni tan olish, ularning ijtimoiy hayotdagi xatti-harakatlariga toqat bilan qarash, ijobiy munosabatda bo‘lish hisoblanadi.

Jamiyatda milliy yuksalish tendensiyalari vujudga kelar ekan, jamiyat ijtimoiy barqarorligi va ma’naviy xavfsizligini ta’minalash, mamlakatda fuqarolararo totuvlik, milliy birdamlik va o‘zaro murosa mezonlarini yuksaltirish ishlarida

yoshlarning sa'y-harakatlari kuchayadi, mas'uliyati oshadi hamda ijtimoiy jarayonlarda bag'rikenglik tuyg'ulari rivojlanadi. Yoshlarning jamiyat hayotida erkin, har tomonlama ehtiyoj, huquq va manfaatlari ta'minlangan holda istiqomat qilishlari ularga keng imkoniyatlarni yaratib berilishi davr taqozosidir.

Jamiyatda yoshlar bag'rikenglik tuyg'usini shakllanishi va uning ijtimoiy hayotda qay darajada namoyon bo'layotganligi borasida mamlakatimiz 600 nafar yoshlari o'rtasida onlayn ijtimoiy so'rov o'tkazildi<sup>1</sup>. Mazkur ijtimoiy so'rovda jumladan yoshlar e'tiboriga "Bugungi kunda yoshlar dunyoqarashida bag'rikenglik tuyg'usi (boshqalarni yaxshi ko'rish, o'zaro yordam berish, qayg'usiga sherik bo'lish, hurmat qilish) qanday darajada, deb o'ylaysiz?", degan savol havola etildi. Ushbu savolga 28 foiz yoshlar bag'rikenglik tuyg'usining yuqori darajada deb javob bergen. 46 foiz yoshlarning esa, bag'rikenglik tuyg'usini o'rtacha darajada ekanligi, 20 foiz yoshlar bag'rikenglik tuyg'usining past darajadaligi haqida javob berishgan, bu esa, yoshlar bag'rikengligi fenomenining yuqori emasligini ko'rsatib turibdi. Qolgan 6 foiz yoshlarning "bir narsa deyishim qiyin", deb javob berishi ularning ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarga nisbatan birmuncha befarq ekanliklarini anglatadi.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 70-maqсадида "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" yo'nalishi belgilangan bo'lib, unda yoshlarning fuqarolik mas'uliyati va bag'rikenglik tuyg'ularini shakllantirish borasida bir qator muhim ahamiyatga ega bo'lган vazifalar, ya'ni "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lган qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish"<sup>2</sup>, nazarda tutilgan.

Jamiyatda yoshlar ma'naviy bag'rikenglik tuyg'usini kamol toptirish ijtimoiy hayotning hayot-mamot vazifasiga kirib, inson qadri va ijtimoiy mavqeini yuqoriga ko'tarish, uning sha'ni, qadr-qimmati ustuvorligini ta'minlash muhim insonparvarlik timsoli hisoblanadi. Yoshlarning ma'naviy borliqqa, ma'naviy hayotning esa yoshlarga beradigan nafi va ko'magi muhim xususiyat bo'lib, bir-birini mantiqan to'ldiradigan va bog'laydigan holatlardir. Yoshlarning jamiyat ma'naviyatini takomillashtirish ishidagi burch va mas'uliyatini oshirish ham mazkur vazifalar sirasiga kiradi. Mazkur ma'naviy, madaniy va ijtimoiy o'zaro aloqadorlikni yanada rivojlantirish, uni yangicha an'analar bilan boyitishni ta'minlash bugungi globallashuv davridagi zamonaviy jamiyatda muhim xususiyatlardan biridir.

Dissertatsiyaning "**Yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlashda bag'rikenglik fenomenini yuksaltirishning ijtimoiy va g'oyaviy mexanizmlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida jamiyatda yoshlar ma'naviy xavfsizligi va

<sup>1</sup> "Istiqlol" Mintaqaviy tadqiqot markazi tomonidan tasdiqlangan sotsiologik tadqiqot dasturi asosida o'tkazilgan so'rov natijalari. 2022 yil 22 sentyabr.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.

bag‘rikenglik tuyg‘usiga tahdidlar, globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatiga ta’sir etuvchi salbiy omillar va bu borada mavjud muammolar, ularni bartaraf etish omillari, yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minalashda milliy va diniy bag‘rikenglikning o‘rni va uni ta’minalash mexanizmlari ilmiy jihatdan o‘rganilgan.

Ma’naviy xavfsizlik milliy xavfsizlikning bir bo‘lagini tashkil etadi va jamiyatda inson, ayniqsa yoshlar g‘oyaviy olamida muhim rol o‘ynaydigan jarayondir. Globallashgan va texnogen sivilizatsiya sharoitida jamiyatda yoshlar ijtimoiy-ma’naviy hayoti, dunyoqarashi va ongini turli tahdidlar qamrab olmoqda. Shaxs, jamiyat va davlat bilan uzlucksiz bog‘liq bo‘lgan hayotiy muhim manfaatlariga nisbatan xavf va tahdidlar zamon va makon nuqtai nazari bilan, ijtimoiy-iqtisodiy hayot takomillashgan sayin kuchayib bormoqda. Mazkur tahdidlar zamirida ko‘pincha dunyoda hududlar, resurslar, kapital va intellektual mulklarga ega chiqish, boshqalarning manfaatlarini yo‘qqa chiqarish evaziga farovon yashash uchun kurash bilan bog‘liq bo‘lib keladi.

Xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan bo‘ladigan tahdidlar, ijtimoiy hayotda uchraydigan muammolarga qarshi kurashda har tomonlama hamkorlik g‘oyasi BMT Ustavida ta’kidlanganidek, “Birlashgan Millatlar Tashkiloti iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xususiyatga ega xalqaro muammolarni hal etishda hamda inson huquqlari va erkinliklariga hurmatni rag‘batlantirish va rivojlantirish borasida hamkorlikni amalga oshirish maqsadini ko‘zlaydi. Bunday hamkorlik xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashdagina barcha davatlarning majburiyati hisoblanadi”<sup>1</sup>.

Ma’naviy xavfsizlik jamiyatda ijtimoiy-axloqiy yuksalish va bunyodkorlikka qaratilgan ma’naviy muhit barqarorligi, ijtimoiy hayotda sub’yektlar o‘rtasidagi o‘zaro tinch-totuv ijtimoiy munosabatlarini ta’minalashda muhim ahamiyatga egadir. Ma’naviy xavfsizlik jamiyatdagi barcha islohotlarning sifatli amalga oshishi, inson turmush tarzi yuksalishi va farovonligining ta’milanishi, shaxs dunyoqarashi va tafakkurining bunyodkorlikka qaratilgan xususiyatlar bilan doimiy boyib borishi, fuqaro va ijtimoiy guruqlar ijtimoiy manfaatlarining ta’milanishi, fuqarolik jamiyatni institutlari o‘rtasida o‘zaro kelishuvning doimiy ta’milanishi kabi muhim jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi zamonaviy sharoitda jamiyatda yoshlar ma’naviy xavfsizligiga ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga quyidagi tahdidlar mavjud:

- ba’zi hududlarda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minalashga qaratilgan dastur va loyihalarning to‘liqligicha bajarilmasligi natijasida yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklar, jinoyatlar, narkomaniya, fohishabozlik, bezorilik kabi illatlarni vujudga kelishi;

- globallashuv oqibatida internet va boshqa telekommunikatsiya vositalarining kuchayib borayotganligi, texnologiyalashgan tizimlarning ijtimoiy hayotga to‘liq kirib borishi yoshlarda internetomaniya, kompyuter va telefonlarga ruju qo‘yish va bu jarayon ularning ijtimoiy hayotdan begonalashuviga olib kelishi;

- ba’zi hududlarda ishsizlikning ko‘payishi, yoshlarni ish bilan ta’minalash va mehnat bandligini ta’minalashdagi muammolar, ba’zi sohalarda ish haqining

<sup>1</sup> Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi. 1-modda, 3-band. // Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar/. Mas‘ul muharrir A.Saidov. – T., 2004.–3-b.

pastligi, tovarlar va xizmatlar narxining qimmatlashuvi kabi omillar ijtimoiy nizolarga sabab bo‘lishi;

- aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ko‘pgina illatlar, ortiqcha chiqim qilinayotgan to‘ylar, ma’rakalar, oilaviy tadbirlar, dabdabali marosimlari va boshqa salbiy odatlarning mavjudligi yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy darjasи va turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatishi.

Jamiyat va uning ma’naviy sohasiga tahdidlar va salbiy omillarni aniqlash, uni bartaraf etish yo‘llarini qidirish va amaliy natijalarga erishish jamiyat ma’naviy xavfsizligini ta’minalash uchun muhim hisoblanadi. Jamiyat va uning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy tizimlarining hech qanday ijtimoiy larzalarsiz, bir tekisda takomilga yetib borishi uning kelajak barqaror taraqqiyotini ta’minalaydi va buniyodkorlik an’analarini namoyon etadi. Umuman olganda tahdidlar - kategoriya sifatida jamiyatning barcha tizimlarini rivojlanishiga, jamiyat taraqqiyotiga, milliy manfaatlarga real zarar yetkazadigan, unga konkret to‘sinqilik qiladigan, ijtimoiy hayot sohalarini ichdan yemirish qobiliyatiga ega bo‘lgan shart-sharoitlar hamda omillar majmuasidir.

Jamiyat ma’naviy xavfsizligini va ijtimoiy barqarorligini ta’minalash jarayonlarida yoshlarning ma’naviy olamiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan tashqi omillarni o‘ziga xos tomonlarini quyidagicha izohlash mumkin:

- jahon geosiyosiy va geomafkuraviy jarayonlari orqali vujudga keladigan mafkuraviy va siyosiy tahdidlar;

- jamiyat va inson ma’naviy hayoti va ijtimoiy hayotiy manfaatlariga doimiy xavf soladigan ma’naviy tahdidlar;

- globallashuv jarayonlari orqali paydo bo‘ladigan inson va jamiyat qadriyatlarini izdan chiqarishga xizmat qiladigan g‘ayrimilliy tahdidlar;

- internet olami, ommaviy kommunikatsiyalar va boshqa axborot resurslari orqali kirib keladigan axborot tahdidlari.

Mamlakatlar tashqarisidan yoki ichkaridan turib ba’zi destruktiv kuchlarning yoshlarning ma’naviy hayotini izdan chiqarish, ijtimoiy faolligi va mas’uliyatini so‘ndirish, ularning ma’naviy tafakkuriga, bag‘rikenglik va insoniylik tuyg‘ulariga putur yetkazish ayniqsa, geomafkuraviy nuqtai nazardagi turli alovlar va g‘ayritabiyy xatti-harakatlarni amalga oshirib, ma’naviy qaram qilib olishga intilish, mamlakatda inson salohiyati va resurslarini izdan chiqarish muammolari doimiy davom etib borayotgan jarayondir. Bu voqelik yoshlarning endilikda hushyor va sergak bo‘lishga, mamlakat ishi uchun doimo sobitqadamlik bilan harakat qilishga undaydi.

Jamiyatda yoshlар ma’naviy xavfsizligiga tahidlarni bartaraf etish borasidagi chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish uchun xilma-xil nazariy va amaliy vazifalar doimiy ravishda bajarilib borilishi lozim, masalan:

1. Nazariy asoslardagi vazifa: ma’naviyatga qilinayotgan tahidlarni oldini olish va jamiyat ma’naviy hayotining barqarorligini mustahkamlash va yuksaltirish yo‘nalishlarini belgilab beradigan hamda ilmiy dalillarga asoslangan me’yorlar, dasturlar va chora-tadbirlar ishlab chiqishga yordamlashadi. Buning uchun aniq yo‘naltirilgan, qat’iy asoslangan vazifalar qo‘yilishi lozim.

2. Amaliy asoslardagi vazifa: ma’naviy xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha qabul qilingan dasturlar va qarorlarni hayotda izchillik bilan amalga oshirish, butun

jamiyatni turli-tuman ma’naviy tahdidlar, illatlardan va salbiy vaziyatlardan tozalashdir. Chunki bu vazifa ijtimoiy hayotda to‘laqonli ravishda amalga oshirilmas ekan, unda jamiyat ma’naviy xavfsizligiga erishib bo‘lmaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Yoshlar ma’naviy bag‘rikengligini yuksaltirish texnologiyalari va innovatsion omillari**”, deb nomlanib, unda yoshlarda bag‘rikenglik fenomenini yuksaltirishda ma’naviy targ‘ibot texnologiyalari, uslublari va vositalari va bu jarayonda olib boriladigan innovatsion chora-tadbirlar, yoshlar ma’naviy bag‘rikenglik tuyg‘usini yuksaltirishda davlat va jamoatchilik tuzilmalari, ijtimoiy-siyosiy institatlarning o‘rni, ularning bajaradigan dasturiy ahamiyatga bo‘lgan vazifalari yoritilgan.

Jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda olib boriladigan targ‘ibot ishida yangi texnologiyalarni qo‘llash bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifat sohasidagi ilmiy jamoatchilik vakillarining diqqat markazidagi masalaga aylanib bormoqda. Mamlakatni ijtimoiy va ma’naviy jihatdan taraqqiy ettirish, jamiyat ma’naviy tizimini barqarorligini ta’minlash va bu borada tegishli muammolari aniqlash, o‘rganish va tadqiqot ishlarini olib borish, uning kelib chiqishi va ijtimoiy oqibatlarini atroflicha tahlil etish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Ma’naviy soha targ‘iboti takomilida ham hal etilishi lozim bo‘lgan tegishli masalalar ko‘pdir.

Bugungi kunda jamiyatda yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlarini yanada yuksaltirish uchun tadqiqot va tahliliy ishlar, ilmiy-texnologik jarayonlarni tashkil etish ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, bu jarayonda asosiy muammolarni hal etib borishga ko‘maklashadi. Bu borada “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi”da ta’kidlanishicha, “O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda”<sup>1</sup>.

